

ONA TILI- MILLAT MA’NAVIY QIYOFASINING KO’ZGUSI

Salimova Feruza Qalandarovna

Qorako’l tuman 53-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tilimizga bo’lgan hurmat va ehtirom va uning mustaqil bo’lgunga qadar ko’rsatilgan jasorat haqida keng yoritilgan. Maqola davomida buyuk allomalarning fikrlariga alohida to’xtalib o’tilgan.

Kalit so’zlar: o’zbek tili, nazariy qarashlar, rivoyatnoma bahslar.

Abstract: In this article, the respect and reverence for our mother tongue and the bravery shown before its independence is widely covered. Throughout the article, the opinions of the great scholars were discussed.

Key words: Uzbek language, theoretical views, autobiographical debates.

Аннотация: В этой статье широко освещены уважение и почтение к нашему родному языку и мужество, проявленное перед его независимостью. На протяжении всей статьи обсуждались мнения великих ученых.

Ключевые слова: узбекский язык, теоретические воззрения, автобиографические дебаты.

Ona-Vatan. Mustaqillik.Istiqlol. Bu so’zlar qatorida yana bir so’z baralla yangraydi.

Bu so’z ona til. Ona-Vatan,erkinlik,mustaqil fikrlash, so’z erkinligi, matbuot erkinligi,ijod erkinligi ona-tili bilan chambarchas bog’liqdir.

21- oktabr O’zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun. Bu sana har yili yurtimizda tantanali nishonlanadi. Shu yil o’z ona tilimizga erishganimizga 33 yil to’ladi

Ona tilimizning Davlat tili maqomini olishi oqilona siyosat bilan 1989-yilda qo’lga kiritilgan hamda qonuniy muhofazasi ta’minlangan edi.O’shanda davlatimizning asoschisi, marhum Prezidentimiz Islom Karimov ma’naviy jasorat namunasini ko’rsatib,o’zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi haqidagi ezgu tashabbusni sessiya kun tartibiga bosh masala sifatida qo’ygan edi.Uzoq davom etgan munozaralar hamda Islom Karimovning qat’iy pozitsiyasi natijasida ona tilimizga davlat tili maqomi berildi va maxsus qonun bilan muhofaza qilindi.Ona tiliga bo’lgan cheksiz e’tibor samarasi sifatida respublika hayotining barcha jabhasida o’zbek tilida ish yuritish, erkin fikrlash ta’minlandi.

Ona tili ravnaqi yo’lida mashaqqat chekish barcha xalqlarga,jumladan,biz o’zbeklarga ham begona emas. Xususan,so’z mulkinging sultoni Alisher Navoiy o’z zamondoshlarini,ijodkorlarni o’z ona tili(turkiy til)da ijod qilishga chaqirishi hamda o’z ijodida buni ortig’i bilan bajarishi buning yaqqol namunasidir.

Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarida shunday ta’kidlanadi: “Inson qalbining quvonch-u qayg’usini,ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat,uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg’usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga Navoiy asarlari bilan kirib keladi.Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni ko’p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaktirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo’lamiz”.

Ma’lumki, Mir Alisher Navoiy yashagan davrda ilmiy asarlarni arab,badiiy asarlarni fors tilida yozish an’anaga aylangan, turkiy tilga esa nafosatdan mahrum, ifoda imkoniyatlari cheklangan bir til sifatida qaralar edi. Shu sababli ham Alisher Navoiy va shoir Binoiy o’rtasida rivoyatnamo bahslar ham bo’lib o’tgan. Shunday rivoyatga ko’ra Binoiy Navoiyga qarata shunday deydi:

“ Forsi til azizdir,turkiy qo’poldir,

Forsi til lazizdir, turkiy to’poldir”.

Bunga javoban Navoiy quyidagi baytni o’qigan:

“Yaxshi til,yomon til yo’q,hamma til bir,

Ulug’lar oldida bu gap emas sir”.

Bundan ma’lum bo’ladiki, ulug’ shoir tillarni yaxshi yoki, yomon deya kamsitish fikridan yiroq.Aksincha, har bir tilning o’z jozibasi va tarovati borligini ilgari surmoqda.

20-asr boshlarida yashab ijod qilgan buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ham ona tilini millatning dunyoda borligini ko’rsatadurgan oynai hayoti deb ta’riflar ekan, milliy tilning yo’qolishi, millat ruhining yo’qolishiga olib kelishini uqtiradi.

Ona tili muqaddas milliy qadriyat sifatida millat ma’naviy qiyofasining ko’zagusidir. Shuning uchun ham millat, ma’naviyat, ona tili tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir. Tilsiz millat, millatsiz til bo’lmaydi. Biz o’zbeklarning muqaddas va yagona ona tilimiz ham o’sib borayotgan, zukko va navqiron avlodning umridek uzun bo’lishi shubhasizdir. Yosh avlod qanchalik yangi kashfiyotlar kashf qilaversa, bunday kashfiyotlar boshqa tillarga o’zbekcha nom bilan kirib boradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yosh avlod zamon bilan hamnafas, intellektual salohiyatga ega bo’lishga astoydil intilishi va ona yurt, ona tilini muqaddas deb bilishi lozim.Chet tillarni o’rganish bilan ona tilini ikkinchi darajali deb bilish xato ekanini tushunishlari kerak. Ona tilimizning o’rni hamisha oldinda bo’lshishi zarur. Barchamizni qalbimizda ona tilimizga bo’lgan muhabbatimiz aslo so’nmasin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Ma’naviyat nashriyoti. 2008.
2. Ona tili va adabiyot jurnali.Ma’naviyat jurnali. 2010.
3. Ona tili darsligi 4-sinf. O’qituvchi nashriyoti.T..2020.
4. Ma’rifat gazetasi.